

## FAVQULODDA VAZIYATLARDA AHOLINI EVAKUATSIYA QILISH OMILLARI

*Bozorov Subxon Esanovich*

*Buxoro Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi*

*Hayot faoliyati xavfsizligi o`quv markazi katta o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada favqulodda vaziyatlarda evakuatsiya o`tkazish omillari, usullari, yo`llari, uning turlari va mohiyati xususidagi fikrlar ifoda etilgan.

**Kalit so`zlar:** evakuatsiya, butkul ko`chirish, vaqtinchalik ko`chirish, rejalashtirish, ta'minlash, amalga oshirish (ko`chirish) va rejimda amalga oshiriladi, kundalik faoliyat rejimida, yuqori tayyorgarlik rejimida, favqulodda rejimda.

### KIRISH

Zamonaviy qirg`in qurollari ta'siridan, tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarda aholini, moddiy va ma'naviy boyliklarni muhofaza qilishning ishonchli uslubini evakuatsiya (ko`chirish) tashkil etadi.

EVAKUATSIYA (lot. yeusio — bo'shataman) — bu..

1) jangovar harakatlar bo'layotgan yerlardan yarador, bemor, asirlar, shuningdek, ta'mirga muhtoj va ortiqcha asbobuskunalar, harbiy o'ljalar va boshqalar moddiy vositalarni front ortiga jo'natish;

2) harbiy va siyosiy sabablar, shuningdek, tuzilgan shartnoma va bitimlar asosida qo'shinlarni ilgari egallab turgan r-nlardan olib chiqib ketish;

3) dushman hujumi xavfi ostida qolgan yoxud tabiiy ofat (suv toshqini va boshqalar) va yirik texnogen halokatlarga uchragan joylardan fuqarolar, korxonalar, idoralar, badiiy va boshqalar qadriyatlar, mulklarni olib chiqish tadbirlari.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Evakuatsiya deganda – aholini, moddiy va madaniy boyliklarni oldindan tartibli ravishda xavfli xududlardan xavfsiz xududga ko`chirishning kompleks tadbirlari tushuniladi (asosan, ishlamaydigan fuqarolar, nafaqaxo'rlar, bolalar va kasallar evakuatsiya qilinadi). Evakuatsiya qilinadigan xududlar aholining xavfsiz yashashi uchun bir muncha uzoqda joylashishi, hamda yashashi uchun barcha shart-sharoitlar mavjud bo'lishi talab etiladi.

Evakuatsiya omilini 2 turi mavjud:

1 Xavfsiz xududga vaqtinchalik uzoqlashtirish.

2. Xavfsiz xududga butkul ko`chirish.

Xavfsiz xududga vaqtinchalik uzoqlashtirish omili asosan ish bilan mashg'ul bo'lgan ishchi-xizmatchilarga qo'llaniladi. Ko`chirishning bu uslubida ishchi xizmatchilar (shu jumladan, maishiy xizmat ko'rsatish xodimlari ham) xavfli xududdagi asosiy ishlarini bajarganlaridan so'ng, xavfsiz xududga olib boriladi va

keyingi ish vaqitlariga qadar shu yerda saqlanadilar. Keyingi kunlardagi asosiy ishlarini bajarishlari uchun hamma extiyot choralari ko'rgan holda yana ish joylariga qaytadilar. Ishchi xizmatchilarning bunday ish jarayoni xavfli xududdagi sharoit xavfsiz holatga kelgunga qadar davom ettiriladi. Bunda xavfsiz xudud xavfli xududdan taxminan 2 soatli masofada joylashishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, ishchi xizmatchilarni tashishga xavfsiz xudud transport vositalariga qulay bo'lgan yo'l yoqasida joylashishi maqbul xisoblanadi, qolgan toifadagi fuqarolar (pensionerlar, kasalmandlar, qariyalar, yosh bolali onalar, o'quvchi yoshlar) ma'lum vaqtga qadar xavfsiz xududga butkul evakuatsiya qilinadilar. Butkul evakuatsiyada xavfsiz xudud ancha uzoq masofada joylashishi mumkin.

Evakuatsiya qilinganda alohida buyruq bo'lmaguncha fuqarolar o'sha joyda yashab turadilar. Xavfsiz hudud xavfli hududdan birmuncha uzoq masofada joylashgan bo'lishi va aholiga hech qanday xavf tug'dirmasligi lozim. Yana xavfsiz hudud temiryo'l, avtomobil yo'llariga yaqin, ishchi-xizmatchilarning ishga borishi va qaytib kelishi uchun qulay bo'lgan joylarda tashkil etiladi. Ishga bog'liq bo'lmagan ishchilar hududdan uzoqroq yerga evakuatsiya qilinadi.

Ko'chirish ishlarining hammasi evakuatsiya qilinadiganlarning yig'iladigan joyidan tashkillashtiriladi. Yig'ilish joylari (evakuatsiya punkti – EP) asosan, maktablar, klublar va boshqa jamoat inshootlari bo'lishi mumkin. Aholini ko'chirish haqida ma'lumot olganda, darhol ishlab chiqarish korxonasi, o'quv yurtlari, korxonalar, militsiya organlari hamda radio, televideniye orqali odamlar xabardor qilinadi. Yig'ilgan odamlar qayta hisobotdan o'tkazilib, guruhlarga bo'linadi, transport vositalariga taqsimlanib, ko'rsatilgan vaqt ichida xavfsiz hududga yetkazaladi. Evakuatsiya qilingan fuqarolar o'sha yerdagi ishlab chiqarish korxonalarining evakuatsiya qilingan qismida ishlashlari mumkin.

Evakuatsiya uslubini qo'llanilishiga misol qilib ikkinchi jahon urushu davrida yosh bolalarni O'rta Osiyo respublikalari hududlariga evakuatsiya qilinganligini eslash joizdir. Jumladan, Toshkentlik temirchi usta Shoahmad ota Shomahmudov turli millatga mansub 14 nafar yetim bolalarni asragani ma'lum.

Shunindek, 1986-yilda Chernobel (Ukraina) atom elektrostansiyasida ro'y bergan avariya natijasida 11 ta viloyat yerlari radioaktiv zarrachalar bilan zararlanganligi oqibatida 130 mingdan ortiq aholi havfsiz hududlarga evakuatsiya qilingan. Yana bir misol: 1992-yil yanvar oyida Qoraqalpog'siton Respublikasining Buzatov tumanida suv toshqini kuzatilib, havfli hududlardan 3200 nafar aholi va 3026 bosh qoramollar havfsiz hududlarga ko'chirilgan.

Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, aholini va moddiy boyliklarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishda himoyalanihning boshqa uslublari yaxshi natija bermagandagina evakuatsiya omili qo'llaniladi.

Evakuatsiya punktiga kelgan fuqarolar, darhol ro'yhatdan o'tib (ismi, sharifi, turar joyi, kasbi va qaysi xuydudga ko'chirilishi) ular imkon boricha transport vositalarida belgilangan joyga harakatlanishiga ruxsat etiladi. Transport vosiytalariga: temir yo'l, jamoat transportlari va shaxsiy transport vositalari kiradi. Transport vositalari orqali asosan kasalmandlar, qariyalar, nogironlar, yosh bolali ayollar, hamda ishchi hizmatchilar va yosh bolalar ko'chiriladi. Qolgan toifadagi aholi piyoda yurish orqali ko'chiriladi. Piyoda yuradiganlar oldindan belgilangan harakatlanish yo'llari orqali, kolonnada (500-1000 kishi) harakat qiladi. Bunda albatta evakuatsiya punktiga kelgan odamlarni ko'p yig'maslik maqsadida 50-100 kishi yig'ilishi bilan bitta boshliq tayinlanib havfsiz hudud tomon yurishga ruxsat etiladi. Kolonnada harakatlanishda har bir guruh boshliqlari o'z guruhlaridagi odamlarning sonini, begona odamlarning bo'lmasligini va orqada qolayotganlarni doimo nazorat qilib boradi. Kolonnaning harakatlanish tezligi taxminan 4-5 km/soat bo'lishi va kolonnalar orasidagi masofa 500 metrni tashkil etishi kerak. Kolonna birinchi 1-1,5 soat harakatlanishidan keyin 10-15 minut dam olishga ruxsat etiladi. Bunda odamlarga tibbiy yordam olish imkoniyati beriladi. Ikkinchi va undan keyingi yurishlardan keyin evakuatsiya qilinuvchilarga ko'proq dam olish vaqti (1-2 soat) beriladi. Bu vaqtda odamlar issiq ovqat bilan ta'minlanadilar va dam oladilar. Mana shunday tartibda aholi ko'rsatilgan havfsiz hududga yetib boradi.

Evakuatsiya davomida aholining qo'rquvga tushishi yoki bezovtalanishi eng havfli ko'rsatkichlardan hisoblanib, ular quyidagi omillar ta'sirida bo'lishi mumkin:

- Evakuatsiya yo'llarining kamligi;
- Evakuatsiya davrida yuzaga keladigan havflarni yo'qotib bo'lmasligi;
- Evakuatsiya yo'llarining yaroqsiz holga kelib qolganligi;

Katta miqyosida evakuatsiya qilinayotgan aholining berk yo'lga kirib qolishi va boshqalar.

Evakuatsiya davomida aholining bezovtalanishini yo'qotish uchun quyidagi omillarni bajarish zarur hisoblanadi:

- ✓ Evakuatsiya yo'llaridagi to'siqlarni yo'qotish;
- ✓ Evakuatsiya yo'llarining yo'ritilganligini oshirish;
- ✓ Evakuatsiya qilinayotganlar bilan aloqani doimiy ushlab turish;
- ✓ Evakuatsiya davrida ogohlantiruvchi tizimlar ishini shay holatda ushlab turish;
- ✓ Tibbiy yordam ko'rsatish tizimining shayligini ta'minlash.

Hayot tajribasi, FV hududidan aholini ko'chirish (evakuatsiya) o'ta zarur ekanligini, gohida esa asosiy, yagona ishonchli muhofaza usuli ekanligini ko'rsatmoqda. Demak, ko'chirish (evakuatsiya) bu nima degani?

Ko‘chirish (evakuasiya) – aholini FV xavf soluvchi hududdan, yashash sharoiti oldindan yaratilgan xavfsiz hududlarga qisqa muddatlarda joylashtirish maqsadlarida tashkil etiladigan tadbirlar majmuidir.

#### **Ko‘chirish (evakuasiya) tadbirlari 6 bosqichni o‘z ichiga oladi:**

- rejalashtirish;
- ta'minlash;
- amalga oshirish (ko‘chirish) va rejimda amalga oshiriladi:
- kundalik faoliyat rejimida;
- yuqori tayyorgarlik rejimida;
- favqulodda rejimda.

Ko‘chirish (evakuasiya)ni bo‘lib-bo‘lib joylashtirish bilan almashtirib bo‘lmaydi ko‘chirib boshqa joyga joylamoq (otselenie) da ko‘chirib o‘tish (pereselenie) da aholi yangi manzilga doimiy yashash uchun joylashtiriladi.

Bo‘lib-bo‘lib joylashtirishda esa aholi toifalangan shahar va iqtisodiyot ob'ektlaridan shahar tashqarisidagi tumanlarga yashash uchun olib chiqiladi, lekin, shaharda faoliyat olib boradi.

Respublikamiz hududlari Fuqaro muhofazasi muhandisligi texnik tadbirlari qurilish me'yorlari va qoidalari - 93 (SNiP ITM-GZ-93, F.M.MTTQM va Q-93 ) ga binoan quyidagi hududlarga bo‘linadi:

- xavfli hudud - yuzga kelishi mumkin bo‘lgan FV hududi (kimyoviy, radioaktiv, biologik zaharlanish, halokatli suv bosishi, sel oqimlari, ko‘chkilar, zamonaviy qirg‘in qurollari vositasida yuzaga keltirilgan kuchli vayronagarchiliklar) hisoblanadi.

- xavfsiz hudud-tub va ko‘chirilgan aholi turmush tarziga FV zarar etkazmaydigan aholi yashash joylari hisoblanadi. Ular uzoqligi turlicha bo‘lib, bir necha km/dan, bir necha yuz km/ni tashkil etadi. Bu hudud FVV va uning hududiy boshqarmalari tomonidan belgilanadi va xavfsiz hududlarni FVV ni, xududiy organlari aniqlab, ko‘chiriluvchi ob'ektlar (korxonalar, tashkilot va muassasalar) uchun hududlarni ajratadi.

Ko‘chirish tadbirlarini amalga oshirishda bir necha omillar ta'sir etadi.

#### **Ko‘chirish (evakuasiya) turlari**

Ko‘chirish (evakuasiya) uning o‘tkazilish vaqti va muddatiga qarab quyidagilarga ajratiladi.

-Oldindan ko‘chirish

Bu turdagi ko‘chirish (evakuasiya)da barcha tadbirlar oldindan rejalashtirilib, FV xavfi yuzaga kelganda oldindan, barcha ko‘chiruv organlarini jalb qilgan holda asosiy ko‘chiruv rejasiga binoan amalga oshiriladi. Oldindan amalga oshiriladigan evakuasiya (ko‘chirish) ma'lum sharoitlardagi FV yuzaga kelganda amalga oshiriladi (suv toshqinlari, qurg‘oqchilik hamda xarbiy harakatlarga tayyorgarlik bosqichlari va boshqalar).

- shoshilinch (kechiktirib bo‘lmas)

- Aholining turmush tarziga putur etkazilib, hayoti va sog‘lig‘iga xavf tug‘ilganda shoshilinch (kechiktirib bo‘lmas) ko‘chirish (evakuasiya) amalga oshiriladi.

Shoshilinch (kechiktirib bo‘lmas) ko‘chirish (evakuasiya) oldindan ko‘chirish (evakuasiya) turiga nisbatan birmuncha farq qiladi. Bu turdagi tadbir (yong‘in, sel, ko‘chki, hududlarni kimyoviy zaharlanishi, hamda tez o‘tadigan jangovar harbiy harakatlar) va boshqa tez kechadigan Favqulodda vaziyatlarda tez kechadigan amalga oshiriladi.

Bo‘lib o‘tgan FV tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ko‘chirish (evakuasiya) xam oldindan, ham shoshilinch bo‘ladi. FVning to‘satdan sodir bo‘lishi odatda shoshilinch ko‘chirish (evakuasiya)ni o‘tkazish ko‘proq amalga oshiriladi, shoshilinch ko‘chirish (evakuasiya)ni amalga oshirish oldindan ko‘chirish (evakuasiya) ga nisbatan birmuncha murakkabroq hisoblanadi. Shoshilinch ko‘chirish (evakuasiya)da o‘nlab darhol echilishi talab etiladigan muammolar paydo bo‘ladi, vaqt, kuch va vositalar ham chegaralangan bo‘ladi.

Respublika va transchegarali FVlar xavf solib yoki sodir bo‘lib, evakuasiya ko‘chirish (evakuasiya) tadbirlarini ikki va undan ortiq viloyatlar hududlarida amalga oshirishiga to‘g‘ri kelsa, shuningdek kurolli nizolar yuzaga kelsa, aholini ko‘chirish (evakuasiya) uchun qarorni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qabul qiladi.

FV ning tavsifiga, ko‘lamiga va olib chiqiladigan aholi soniga qarab ko‘chirish (evakuasiya):

- lokal;
- mahalliy;
- hududiy

Lokal ko‘chirish (evakuasiya) - FV hududi ob'ekt, daha yoki kichik qishloq aholi punkti chegarasidan tashqariga chiqmagan, ko‘chiriladigan aholi soni bir necha mingdan oshmaydigan va bu FV hududi atrofidagi aholi yashash punktiga yoki shaharning shikastlanmagan hududiga joylashtiriladigan evakuasiya.

Mahalliy ko‘chirish (evakuasiya) - FV ta'siriga o‘rtacha kattalikdagi aholi yashash punktlari, katta shaharlar tasarrufidagi tumanlar, yoki qishloq tumanlari tushib, ko‘chirilayotgan aholi soni bir necha mingdan o‘n minggachani tashkil etib, ular FV sodir bo‘lgan hududlar chegarasidan tashqarida, lekin bir viloyat ichida amalga oshirilib joylashtiriladigan evakuasiya.

Hududiy ko‘chirish (evakuasiya) - FV ta'siri natijasida bir yoki undan ortiq aholisi zich bo‘lgan shaharlar talafot ko‘rsa, ko‘chiriladigan aholi soni o‘n mingdan ko‘pni tashkil etsa, ular doimiy yashash joylaridan bir muncha uzoqroq masofadagi viloyat ichida yoki boshqa viloyat hududida joylashtiriladigan evakuasiya;



FV hududida qolgan aholini ko‘chirish (evakuasiya) tadbirlari bilan qamrab olinishiga qarab:

- umumiy;
- qisman turlarga bo‘linadi.

Umumiy ko‘chirish (evakuasiya) turi FV hududidagi barcha aholini olib chiqishni o‘z ichiga oladi.

Qisman - evakuasiya (ko‘chirish) qilinadi. FV hududidan ma'lum toifadagi aholi (bemor, nogiron, homilador ayollar, bolalar va boshqalar)ni olib evakuasiya qilishi nazarda tutiladi.

## **XULOSA VA MUNOZARA**

### **Turli favqulodda vaziyatlarda aholini ko‘chirish usullari:**

Aholini favqulodda vaziyat yuz bergan xududdan ko‘chirish har bir alohida holda shu vaziyatning yuzaga kelish sharoitiga, favqulodda vaziyat manbai ta'sir omillarining ta'sir etish xarakteri va makon-vaqt ko‘rsatgichlariga qarab belgilanadi.

Favqulodda vaziyat yuzaga kelishi haqidagi ma'lumot olinganada odamlarni favqulodda vaziyat yuz bergan hududdan transportda va piyoda uyushqoqlik bilan olib chiqish uchun qulay sharoit yaratishdan iborat bo‘lgan tayyorgarlik tadbirlari o‘tkaziladi.

### **Aholini ko‘chirish to‘g‘risida axborot olinganda quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi;**

-ko‘chirish boshlangani va tartibi haqida ko‘chirish tashkilotlari, korxonalar va tashkilotlar rahbarlariga, shuningdek aholiga xabar berish;

-ko‘chirish tashkilotlarini yo‘lga qo‘yish va shay holga keltirish;

-ko‘chiriladigan aholini yig‘ish va xavfsiz joylarga jo‘natishga tayyorlash.

Piyoda boradigan guruhlar to‘plamini tuzish va yo‘nalishlardagi boshlang‘ich joylariga olib chiqish, transport vositalarini aholining transportga chiqish va undan tushish joylariga keltirish hamda aholini transportga chiqarish. Ko‘chirilgan aholini oldindan tayyorlab qo‘yilgan, turmush kechirishi uchun birinchi galdagi zarur sharoitlar bilan ta'minlangan xavfsiz joylarda qabul qilish va joylashtirish.

Har bir alohida favqulodda vaziyatda aholini ko‘chirishning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘ladi.

### **Yer qimirlaganda (zilzilada):**

Aholini ko‘chirish mahalliy, yoxud mintaqaviy tusda bo‘lishi mumkin. Ko‘chirishni o‘tkazish muddatlari yo‘l-transport imkoniyatlariga qarab belgilanadi. Ko‘chirish shikastlangan joylarda ko‘chiriladiganlarni yig‘ish joyi yo‘lga qo‘yib, bir bosqichda o‘tkaziladi va hududiy asosda amalga oshiriladi.

### **Radioaktiv zaharlanganda:**

Ko‘chirish yoki mahalliy, yoxud mintaqaviy bo‘lib, alohida (bolalar uyi, tibbiyot muassasalari, internatlar va h.k. dan tashqari) ob'ektlarda hududiy asosda

amalga oshiriadi. Aholini ko‘chirish 2 bosqichda o‘tkaziladi: I- transportga chiqarish joyidan ko‘chirish oraliq joylarigacha, II- ko‘chirish oraliq joylaridan rejadagi joylashtirish joylarigacha. Ko‘chirish oraliq joylarida “toza” transportga o‘tkaziladi.

#### **Kimyoviy zaharlanishda:**

Bevosita kimyoviy xavfli ob'ektlar yaqinida yashab turgan aholi vaqt etishmasligi sababli, odatda, xavfli xududdan olib chiqilmay, balki jips yopiladigan panajoy va xonalarga shaxsiy muhofaza qilish vositalaridan foydalanib yashirinadi. Aholining qolgan qismi real yuzaga kelayotgan sharoitga qarab, eng qisqa muddatlarda asosan piyoda tartibda ko‘chiriladi.

#### **Sel kelishi xavfi bor joylardan aholini ko‘chirish:**

Bunday ko‘chirish sel oqimi yuzaga kelish xavfi tug‘ilganda, sel oqimi yuzaga kelayotgan davrda, alohida hollarda esa sel oqimining ta'siri tugaganda ham o‘tkazilishi mumkin.

Aholini ko‘chirish oldindan o‘tkazilgani ma'qul. Sel oqimi yuzaga kelayotganda esa shoshilinch (kechiktirib bo‘lmaydigan) aholini ko‘chirish tadbirlari o‘tkaziladi.

Ko‘chirishning shoshilinchligi sel oqimning muhofaza ob'ektiga kelishi taxmin qilinayotgan vaqt, odatda 4 soatgacha etadigan vaqt bilan belgilanadi. Shundan keyin esa real xavf tug‘ilishiga qarab belgilanadi. Aholini ko‘chirish cheklangan yoki mahalliy xarakterda bo‘ladi, 2 bosqichda o‘tkaziladi: 1-bosqich ko‘chiriladiganlarning yig‘ilish joylarini yo‘lga qo‘ymasdan, sel oqimi joyining o‘zida, 2-bosqichda esa ko‘chiriladiganlarning yig‘ilish joylari orqali rejadagi joylarga etkazib qo‘yguncha (tashlab ketilgan o‘ylar va aholi yashash joylarini sel buzib ketgandayo) davom etadi.

Xabar oldindan (taxmin qilinishiga binoan) yoki selning boshi signal darvozasidan o‘tayotganda (shoshilinch ko‘chirishlarda) beriladi.

#### **Ko‘chki xavfi bor joylardan aholini ko‘chirish**

Bunday ko‘chirishlar qor ko‘chirish xavfi tug‘ilganda, shuningdek qor ko‘chki tushib bo‘lgandan keyin (turmush kechirishni ta'minlash ob'ektlari buzilganda) o‘tkaziladi. Ko‘chirish hududiy asosda, bir bosqichda o‘tkaziladi, cheklangan xarakterda bo‘ladi hamda oldindan o‘tkaziladigan, buning iloji bo‘lmaganda esa shoshilinch bo‘lishi kerak.

#### **Halokatli suv bosish va toshqin vaktida:**

Ko‘chirish gidrotexnika inshootlari buzilish xavfi tug‘ilgan yoki buzilgan hollarda yoxud suv havzalaridagi suv sathi ko‘tarilib ketganda (toshqinda), shuningdek ob'ektlarni va turmush kechirishni ta'minlash tizimlarini suv buzib ketganda o‘tkaziladi. Ko‘chirishlar cheklangan yoki mahalliy xarakterda bo‘ladi. Oldindan o‘tkaziladigan ko‘chirishlar ko‘chiriladiganlarni yig‘ilish joylarida yo‘lga qo‘yiladi (ishlab chiqarish hududiy asosda). Oldindan o‘tkazish davri qisqa bo‘lganda aholini ko‘chirish hududiy asosda 1 yoki 2 bosqichda (ko‘chirishning oraliq joylarini yo‘lga qo‘yib) o‘tkaziladi.

Aholini favqulodda vaziyat yuz bergan xududdan ko‘chirish har bir alohida holda shu vaziyatning yuzaga kelish sharoitiga, favqulodda vaziyat manbai ta'sir omillarining ta'sir etish xarakteri va makon-vaqt ko‘rsatgichlariga qarab belgilanadi.

Favqulodda vaziyat yuzaga kelishi haqidagi ma'lumot olinganada odamlarni favqulodda vaziyat yuz bergan hududdan transportda va piyoda uyushqoqlik bilan olib chiqish uchun qulay sharoit yaratishdan iborat bo‘lgan tayyorgarlik tadbirlari o‘tkaziladi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida qarori, 29.04.2023 yildagi 171-son.
2. Галимова Лилия. Фавқулудда вазиятлар хавфи туғилганда ва содир бўлганда аҳолини кўчириш. Ўқув қўлланма. Тошкент – 2011 й.
3. [https://www.fvv.uz/uz\\_lat/encyclopedia/item/39](https://www.fvv.uz/uz_lat/encyclopedia/item/39).
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Evakuatsiya>.